



Qoraqalpoq'iston Respublikasi statistika boshqarmasi




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023- YILNING
YANVAR-AVGUST OYLARIDA

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-avgust

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug‘urtalash va har xil turdagi vositachilikga qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo‘lganlar soni bo‘yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-avgust

Info

Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tash-kilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o‘z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **7 786,9** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 146,5** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **107,6 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma’lumotlar


2023- yil yanvar-avgust

| Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari (2023- yil yanvar-avgust oylarida) | Hajmi, mlrd. so‘m | 2022- yilga nisbatan o‘sish sur‘ati, % da |
|--|-------------------|---|
| Xizmatlar - jami | 7 786,9 | 107,6 |
| shu jumladan: | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 441,9 | 123,7 |
| Moliyaviy xizmatlar | 1 830,5 | 112,5 |
| Transport xizmatlari | 1 923,8 | 104,8 |
| shu jumladan: avtotransport xizmatlari | 962,9 | 104,2 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 199,0 | 103,0 |
| Savdo xizmatlari | 1 669,5 | 109,6 |
| Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar | 178,8 | 105,8 |
| Ta’lim sohasidagi xizmatlar | 378,1 | 87,0 |
| Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 97,1 | 110,9 |
| Ijara xizmatlari | 144,7 | 100,2 |
| Kompyuter va maishiy tovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar | 235,6 | 104,7 |
| Shaxsiy xizmatlar | 316,7 | 106,6 |
| Me’morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 110,5 | 108,9 |
| Boshqa xizmatlar | 260,7 | 105,8 |

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-avgust

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning tarkibi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushni transport xizmatlari egallaydi. 2023- yilning yanvar-avgust oylarida bu xizmatlarning ulushi **24,7 %** ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (**23,5 %**), savdo xizmatlari (**21,4 %**), shuningdek, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (**5,7 %**) bo'yicha qayd etildi.

Dastlabki ma’lumotlar

2023- yil yanvar-avgust

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmida unchalik katta bo‘lmagan o‘shish qayd etildi, ularning ulushi **1,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-avgust oylarida transport xizmatlari umumiy hajmning **25,9 %** ini tashkil etgan. 2022- yilning shu davrida sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ulushi ham eng kichik ko‘rsatgichga ega bo‘lgan – **1,2 %**.



Jamiyatning rivojlanishi hamda ishlab chiqarish kuchlarining o‘shishi bilan, xizmatlar sohasining muayyan rivojlanishi yuz beradi.

Hozirda bu sohada ish bilan bandlikning oshishi, mehnatni texnik jihozlanishining o‘shishi va ilg‘or texnologiyalarning joriy etilishi kuzatilmoqda.


2023- yilning yanvar-avgust oylarida yuqori o‘shish aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (**23,7 %**), moliya xizmatlarida (**12,5 %**), sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (**10,9 %**), savdo xizmatlari (**9,6 %**), me‘morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarda (**8,9 %**), qayd etildi.

Ta’lim sohasidagi xizmatlar hajmi (**13,0 %** ga) pasayishi qayd etildi.

Dastlabki ma’lumotlar

2023- yil yanvar-avgust

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘sinh sur‘atlarini taqqoslash, % da



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarda yuqori o‘sinh sur‘atlari qayd etilgan – **32,3 %**. Ta‘lim sohasidagi xizmatlar o‘sinh sur‘atlarida pasayish kuzatilgan – **4,2 %**.


Info

Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini iste'molchiga yetkazib berishdek zarur vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **21,4 %** ni tashkil etib, bu **1 669,5** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **1 376,3** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **20,7 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari



Dastlabki ma'lumotlar


2023- yil yanvar-avgust

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb to'rt dan uch qismini, aniqrog'i, **78,5 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **13,2 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajmni avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi (**8,3 %**) tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi

(2023- yilning yanvar-avgust oylarida)



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo ulushi **79,3 %** ga yetdi.



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar
(2023- yil yanvar-avgust oylarida)

2023- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 830,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ularning hajmi **1 522,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **23,3** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ularning ulushi **22,9** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **308,2** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2023- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **12,5** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ularning o'sish sur'ati **132,3** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-avgust


Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **91,8 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,5 %** oraliq'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,7 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2023- yil yanvar-avgust oylarida)

**Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**



**Sug'urta
bo'yicha
xizmatlar**

**Yordamchi
moliyaviy
faoliyat**

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **84,5 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta xizmatlarining ulushi **13,2 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar – **2,3 %**.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-avgust



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2022- y. Yanvar-avgust

2023- y. Yanvar-avgust



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-avgust

Info

Harakatlar strategiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblangan **ta‘lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta‘lim sohasidagi xizmatlar

2023- y. yanvar-avgust

87,0 %

O‘tgan yilga
nisbatan o‘shish
sur‘atlari

**378,1
mlrd. so‘m**

Ko‘rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi

4,9 %

Umumiy
hajmdagi ulushi

95,8 %

2022- y. yanvar-avgust

**382,0
mlrd. so‘m**

5,8 %

2023- yilning yanvar-avgust oylarida ta‘lim sohasidagi xizmatlar hajmi **378,1** mlrd. so‘mga yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,9 %** ini tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o‘shish sur‘ati **87,0 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-avgust




Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog‘liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste‘mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

**2022- y.
Yanvar-avgust**

**2023- y.
Yanvar-avgust**



Xizmatlar hajmi, mlrd. so‘m

**Xizmatlar jami hajmidagi
ulushi, % da**

O‘sish sur‘ati, % da

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-avgust

Info

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Dastlabki ma’lumotlar

2023- yil yanvar-avgust

2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar hajmi ko‘rib chiqilayotgan davrda **43,3** mlrd. so‘mga ko‘paydi.

Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar tarkibi, % da

**2022- y.
yanvar-
avgust**

**Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta‘minlash bo‘yicha
xizmatlar**

**2023- y.
yanvar-
avgust**



2023- yilning yanvar-avgust oylarida yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta‘minlash bo‘yicha xizmatlarning ulushi **82,7** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **84,1** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma’lumotlar

2023- yil yanvar-avgust

| Hududlar bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlarning asosiy ko‘rsatkichlari (yanvar-avgust oylarida) | Hajmi, mlrd. so‘m | O‘sinh sur‘ati, % da | |
|---|----------------------|----------------------|--------------|
| | | 2023- y. | 2022- y. |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 7 786,9 | 107,6 | 116,7 |
| Nukus sh. | 3 246,7 | 107,2 | 112,5 |
| tumanlar: | | | |
| Amudaryo | 406,0 | 109,4 | 116,8 |
| Beruniy | 390,6 | 107,2 | 112,6 |
| Bo‘zatov | 47,3 | 121,1 | 116,6 |
| Qorao‘zak | 132,2 | 112,0 | 111,1 |
| Kegeyli | 156,2 | 112,9 | 112,8 |
| Qo‘ng‘irot | 1 097,2 | 100,1 | 144,7 |
| Qonliko‘l | 112,3 | 109,8 | 114,0 |
| Mo‘ynoq | 94,8 | 109,9 | 113,4 |
| Nukus t. | 169,8 | 110,1 | 111,9 |
| Taxiatosh | 209,4 | 126,6 | 110,9 |
| Taxtako‘pir | 114,6 | 108,1 | 112,6 |
| To‘rtko‘l | 584,4 | 109,5 | 111,8 |
| Xo‘jayli | 343,9 | 109,9 | 110,7 |
| Chimboy | 233,6 | 107,4 | 113,3 |
| Shumanay | 108,7 | 112,7 | 113,1 |
| Ellikqal‘a | 339,2 | 111,7 | 116,0 |


Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-avgust

Info

Zamonaviy O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog‘liqdir.

Hududlar kesimida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2023- yil yanvar-avgust oylarida)



Xizmatlar sohasining eng past ko‘rsatkichlari Bo‘zatov tumanida – **0,6 %** (2022- yilning yanvar-avgust oylarida – **0,5 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-avgust

Info

Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

3 929,8
ming so'm

Hajmning o'sishi

533,9
ming so'mga



106,2 %

O'sish sur'ati

2023- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3 929,8** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **106,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2022- yilning yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

3 395,9 ming so'mni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish sur'ati **115,0 %** da qayd etilgan.